

Uy-joy fondining asosiy statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

"Uy-joy fondining asosiy statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom" (keyingi o'rinlarda – uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga muvofiq, uy-joy fondi statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, ularning xalqaro darajada taqqoslanishini ta'minlash, statistika organlari, mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan respublika uy-joy fondi holati hamda tarkibini tavsiflovchi ishonchli ma'lumotlarni olishda, rasmiy axborotni taqdim etish uchun uy-joy fondi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni olishning asosiy jihatlari va usullarini belgilaydi.

Ushbu uslubiy nizom Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda–GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiy nizomda uy-joy fondining asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun foydalaniladigan axborot manbalari, ularni tasnifi va ta'riflari, uy-joy fondi sohasida statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi, rasmiy statistika ma'lumotlar manbalari keltirilgan bo'lib, ushbu uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Uy-joy fondi statistikasi uy-joy fondining mavjudligi, tarkibi, harakati va obodonlashtirilganligi hamda aholining uy-joy sharoitlari holatini o'rganadi.

3. Mazkur uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

uy-joy fondi – inson yashashi uchun yaroqli bo'lgan turar joydan, shu jumladan uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylardan)

iborat. Uylarda joylashgan savdo, maishiy va nosanoat yo'nalishidagi o'zga ehtiyojlarga mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan joylar uy-joy fondiga kirmaydi;

bino – tom bilan qoplangan va poydevordan tomgacha tashqi yoki ichki devorlar bilan o'ralgan, yashash uchun yoki qishloq xo'jaligi, savdo, sanoat va madaniy maqsadlarda yoki xizmatlar ko'rsatish uchun mo'ljallangan bir yoki bir nechta turar joy, xona va boshqa joylarni o'z ichiga oladi. Bino uy-joyini ro'yxatga olishda muhim, biroq bilvosita kuzatuv belgisi sifatida qaraladi. Boisi, binoda turar joy joylashganligi sababli binoga tegishli bo'lgan ma'lumotlar (tuzilish turi, tashqi devorlar materiali va tuzilishning boshqa ba'zi xususiyatlari) ushbu binoda joylashgan yashash joylarini to'g'ri bayon qilish uchun zarur hisoblanadi;

turar joy – fuqarolarning doimiy yashashlari uchun mo'ljallangan, belgilangan sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar sifatida foydalanishga mo'ljallangan joylar hisoblanadi;

turar joy binosi – fuqarolar yashashlari uchun mo'ljallangan, isitiladigan, tabiiy yoritilgan va majburiy sanitariya me'yorlari qoidalariga, gigiyenik me'yorlarga hamda turar joy binolariga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olgan boshqa majburiy texnik normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlashtirilgan binodir;

yakka tartibdagi uy-joy – bir yer uchastkasida joylashgan, doimiy yashash, dam olish va shaxsiy xo'jalikni yuritishga mo'ljallangan yordamchi-xo'jalik imoratlari va hovlidagi inshootlar tegishli bo'lgan bir yoki bir necha turar joy imorati;

ko'p kvartirali uylar – umumiy muhandislik tizimlari va kvartiralardan tashqari joylari mavjud bo'lgan ikki va undan ortiq kvartirali uydir;

ixtisoslashtirilgan turar joylar – yotoqxonalar, qariya va nogironlar uy-internatlari hamda qariyalar va nogironi bor oilalar uchun ixtisoslashtirilgan kvartiralar;

yashash xonasi – kvartira yoki turar joy binosi ichida joylashgan yashash maydoni, boshqa kapital qurilma (bino, inshoot) ;

kvartira – bu bir yoki bir nechta yashash xonalari va yordamchi xonalardan tashkil topgan, ajratilgan yashash maydonidir;

yashash maydoni – balkonlar, lodjiyalar, terassalar va isitilmaydigan (sovuq) xonalardan tashqari, yashash maydoni va kommunal xonalari maydonlarining yig'indisidir;

yashash uchun mo'ljallanmagan joylari bor kvartiralar – fuqarolar yashashi uchun mo'ljallanmagan, uy qurilishida loyihaga kiritilgan, qurilgan-qayta qurilgan imorat, turar joy binosining quyi qavatida joylashgan turar joyni qonunchilikda belgilangan tartibda yashash uchun mo'ljallanmagan joyga o'tkazilgan, texnik maqsadlarga mo'ljallangan imoratlardan tashqari yer to'la va yarim yer to'la binolariga qayta moslashtirilgan ko'p qavatli uyda joylashgan imoratlar kiradi.

2- bob. Uy-joy fondining asosiy statistik ko'rsatkichlari va ularni shakllantirish manbalari

4. Uy-joy fondining asosiy statistik ko'rsatkichlari quyidagilar:

uy-joy fondining mulkchilik shakli bo'yicha hisobi;

turar joy turlari hisobi;

uy-joy fondi maydonini hisobi;

uy-joy fondining kommunal infratuzilma bilan ta'minlanganligi;

turar joylarning konstruktiv yechimlari bo'yicha hisobi;

turar joy binolarining jismoniy eskirishi;

turar joy binolarining qurilgan yillari hisobi;

uy-joy fondi qiymatini baholash hisobi;

ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchi organlarning uy-joy fondi hisobi.

5. Uy-joy fondining asosiy statistika ko'rsatkichlari ma'lumotlar ko'chmas mulkning yagona davlat reestri ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan shakllantiriladi.

3- bob. Statistika kuzatuvi va ma'muriy ma'lumotlar instrumentariyasi

6. Uy-joy fondining asosiy statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining "Uy-joy fondi to'g'risida"gi ma'muriy ma'lumotlari ;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining "Ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchi organlar ro'yxati" to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlar;

1 kom (kvartira) shakli (yillik) "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyati to'g'risida"gi statistika hisoboti;

1 kb (kvartira) (1 kb shakliga ilova) shakli "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyati to'g'risida"gi hisoboti axborot manbai bo'lib hisoblanadi.

7. Statistika kuzatuvini o'tkazishda foydalaniladigan tasniflagichlar:

O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat kadastrlarini yuritish hamda axborot tizimlarida foydalaniladigan tasniflagichlar to'plami;

O'zbekiston Respublikasi tashkiliy-huquqiy shakllari klassifikatori (THShT) O'zDSt 2847: 2014;

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzulmalarini (obyektlarini) belgilash tizimi idoraviy tasniflagichi (MHOBT);

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarini belgilash tizimi bo'limi ma'lumotnomasi (DBIBT).

4- bob. Uy-joy fondining asosiy statistik ko'rsatkichlari hisobi

1- §. Uy-joy fondining mulkchilik shakli bo'yicha hisobi

8. Uy-joy fondida inson yashashi uchun yaroqli bo'lgan turar joy, shu jumladan uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylardan iborat bo'lgan fond hisobga olinadi.

9. Uylarda joylashgan savdo, maishiy va nosanoat yo'nalishidagi o'zga ehtiyojlarga mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan joylar uy-joy fondiga kirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksiga ko'ra, dala hovlilar, yozgi va bog' uylar, mehmon uylari, sanatoriyalar, dispanserlar, dam olish uylari, oromgohlar, mehmonxonalardagi xonalar, yashash uchun mo'ljallangan, lekin qurilishi tugallanmagan binolar, ko'chma obyektlar (vagonlar, chodirlar va boshqalar), kazarmalar, ruxsatsiz binolar, ulardan yashashidan qat'i nazar, axloq tuzatish muassasalari, qamoqxonalar, qamoqxonalar uchun binolar boshqa shunga o'xshash binolar uy-joy fondiga kirmaydi.

10. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksiga asosan mulkchilik shakli bo'yicha uy-joy fondi xususiy va davlat uy-joy fondlaridan iboratdir.

11. Xususiy uy-joy fondiga quyidagilar kiradi:

jismoniy shaxslar mulki bo'lgan uy-joy fondi (yakka tartibda qurilgan uylar, xususiylashtirilgan, qurilgan hamda olingan kvartiralar va uylar, uy-joy qurish hamda uy-joy kooperativlariga qarashli uylardagi pay (ulush) badallari to'liq to'langan kvartiralar, fuqarolar tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda mulk qilib olingan kvartiralar va uylar);

xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari hamda boshqa nodavlat yuridik shaxslarning mulki bo'lgan

va ularning mablag'lari hisobidan qurilgan yoki auksionda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda olingan uy-joy fondi.

12. Davlat uy-joy fondiga quyidagilar kiradi:

mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo'lgan, mahalliy budjetga tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha boshqa tushumlar hisobidan barpo etilgan munitsipal uy-joy fondi;

davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining to'la xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida bo'lgan idoraviy uy-joy fondi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo'lgan, mahalliy budjet mablag'lari hisobidan barpo etilgan, shuningdek, xususiy, munitsipal, idoraviy uy-joy fondidan olib ularning balansiga berilgan, fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoyalanmagan, kam ta'minlangan toifalari uchun xususiylashtirish huquqisiz ijara shartlari asosida foydalanish uchun berilgan aniq maqsadli kommunal uy-joy fondi.

2-§. Turar joy turlari hisobi

13. Turar joylar quyidagi turlarga bo'linadi:

yakka tartibdagi uylar;

ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar;

ixtisoslashtirilgan turar joylar.

3-§. Uy-joy fondi maydonini hisobga olish

14. Uy-joy fondining asosiy ko'rsatkichlaridan biri uning maydoni hisoblanadi. Uy-joy fondi maydoni umumiy va yashash maydoniga bo'linadi.

15. Uy-joy fondining umumiy maydoni undagi yashash, yordamchi (oshxona, old koridorlar, xonadon ichidagi yo'laklar, hammom yoki dush, hojatxonalar, omborxonalar, shuningdek, isitiladigan va yashash uchun moslashtirilgan chodirlar, mezzaninalar, teraslar, verandalar) va yozgi xonalar, kladvokalar va ichiga qurilgan shkaflar maydonlari yig'indisi hisoblanadi.

16. Uy-joy fondining yashash maydoni – tashqi devorlarning ichki tomonidan o'lchanadigan, yashash uchun yaroqsiz bo'lgan yerto'la va boloxona joylar va ko'p kvartirali uylardagi umumiy foydalanishdagi joylardan mustasno bo'lgan turar joy binolari va binolardagi yashash xonalarining maydoni.

Umumiy foydalanishdagi joylarga quyidagilar kiradi: oshxonalar, koridorlar, hammomlar, omborxonalar balkonlar, lodjiyalar, terassalar va isitilmaydigan (sovuq) xonalar hamda boshqa yordamchi va kommunal xonalarning maydoni.

17. Aholining o'rtacha uy-joy bilan ta'minlanganligi – har bir aholiga to'g'ri keladigan umumiy yashash maydonidir.

Bu ko'rsatkich yil oxiridagi uy-joy fondining umumiy maydonini yil oxiriga mavjud o'rtacha doimiy aholi soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T_{uj} = \frac{M_{uj}}{Ad}$$

bu yerda:

T_{uj} – aholining o'rtacha uy-joy bilan ta'minlanganligi;

M_{uj} – yil oxiridagi uy-joy fondining umumiy maydonini;

Ad – yil oxiriga mavjud o'rtacha doimiy aholi soni.

4-§. Uy-joy fondining kommunal infratuzilma bilan ta'minlanganligi

18. Uy-joy fondini kommunal infratuzilma bilan ta'minlanganligi kvartira (uy)larini ichimlik suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik, gaz, issiq suv, vanna (dush) va boshqalar bilan ta'minlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tushuniladi. Uy-joy fondini sifat ko'rsatkichi bo'lgan ta'minlanganlik darajasi, barcha turdagi obodonlashtirish majmuasi bilan jihozlangan turar joylarning soni bilan o'lchanadi.

19. Agar uyning ichida markaziy suv ta'minoti tizimidan yoki artezian qudug'idan suv oqadigan suv tarqatish tizimi mavjud bo'lsa turar-joy ichimlik suvi bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

20. Agar uyning ichida maishiy suvni (najosat suvni) ko'cha oqova suv tarmog'iga yoki singdiruvchi quduqqa to'kish uchun oqova suv moslamasi bo'lsa turar-joy kanalizatsiya bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

21. Agar kvartira (uy)lar markazlashgan issiqlik ta'minotiga yoki individual uskunalar orqali issiqlik ta'minotiga ulangan bo'lsa, turar-joylar issiqlik bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

22. Agar aholining maishiy ehtiyojlarini issiq suv bilan ta'minlaydigan markazlashtirilgan maxsus suv quvurlari yoki kvartira suv isitgichlari, shu jumladan kichik o'lchamli qozonlar bilan jihozlangan bo'lsa, turar-joy binosi issiq suv bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

23. Agar turar joylar va xonadonlar tabiiy gaz tarmog'iga ulangan bo'lsa, kvartira (uy)lar tabiiy gaz bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

24. Agar turar joylar va xonadonlardagi gaz plitasi, isitish qurilmasi va boshqa maishiy qurilmalarga gaz ta'minoti gaz balonlar orqali ta'minlangan bo'lsa, turar-joy suyultirilgan gaz bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

25. Turar-joy markaziy elektr tarmog'iga yoki mustaqil elektr manbaiga ega bo'lsa, turar-joy elektr tarmog'i bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

26. Issiq suv bilan ta'minlash usuli va issiq suv ta'minoti tizimidan qat'iy nazar turar-joyda vanna (dush) o'rnatilgan bo'lsa, turar-joy vanna (dush) bilan ta'minlangan hisoblanadi, lekin oqova suv tizimi bo'lmagan binolar vanna (dush) bilan jihozlangan hisoblanmaydi.

27. Uy-joy fondini kommunal infratuzilma bilan ta'minlanganligi ko'rsatkichlarini hisoblash "Uy-joy fondini obodonlashtirish statistika ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" asosida amalga oshiriladi.

5-§. Turar joylarning konstruktiv yechimlari bo'yicha hisobi

28. Uy-joy fondining konstruktiv va rejalashtirish yechimlari – ularning iste'mol sifatini, xizmat muddatini, eskirish darajasi va boshqa mahalliy xususiyatlarni tavsiflovchi turli ko'rsatkichlarning to'plami bilan belgilanadi.

29. Turar joy joylashgan binoning muayyan konstruksiyaviy elementlari ishlangan materiallar to'g'risida ma'lumot turar joyning sifatini baholash uchun boshqa belgilar bo'yicha ma'lumotlar bilan bog'liq holda qo'llanilishi mumkin.

30. Turar joy binolarining devor materiallari quyidagi guruhlariga bo'linadi:
yog'ochli;

pishirilmagan gil (xom g'isht, loy paxsa va boshqalar);

pishirilgan gil (g'isht, bloklar, panellar va boshqalar), tosh, beton (joyida quyilgan beton, bloklar, panellar va boshqalar), yoki po'lat karkas (yirik panelli va temir betonli);

konstruksiyaning terma elementlari, ular odatda zavodda tayyorlanadi, qurilish maydoniga yuboriladi va o'rnatiladi;

aralash materiallar (ya'ni, qurilish materiallari kombinatsiyasi);

boshqa turdagi materiallar.

6-§. Turar joy binolarining jismoniy eskirishi

31. Turar joy binolarining jismoniy eskirishi – ekspluatatsiya qilinayotgan turar joy binolarining ishonchliligi va mustahkamligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri. Eskirishning tabiati va intensivligi ko'plab omillarga (fizik, kimyoviy, mexanik, elektrokimyoviy va boshqalar) bog'liq bo'lib, har bir holatda ularning har birining roli har xil bo'ladi va bu bino buzilishining yetakchi omilini aniqlashni qiyinlashtiradi.

32. Konstruksiyaning, elementning, muhandislik jihozlari tizimi va umuman binoning jismoniy eskirishi deganda, iqlim sharoiti hamda inson omili

ta'siri natijasida ularning dastlabki texnik-iqtisodiy sifatlarini (mustahkamlik, ishonchlilik, barqarorlik va boshqalar) yo'qolishi tushunilishi kerak.

33. Turar joy binolari jismoniy eskirish darajasiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) 20 % gacha;
- b) 21 % dan 40 % gacha;
- d) 41 % dan 60 % gacha;
- e) 61 % dan yuqori.

34. Konstruktiv unsurlar va materiallarning jismoniy eskirishini aniqlashtirish uchun quyidagi shkaladan foydalaniladi:

Texnik holatning umumiy xarakteristikasi	Jismoniy eskirish % da
Zararlanish va deformatsiyalanish yo'q. Yengil ta'mirda bartaraf etiladigan konstruktiv unurning ekspluatatsiyasiga ta'sir etmaydigan ayrim, mayda kamchiliklar mavjud. Kapital ta'mir faqat nisbatan yuqori eskirishga ega bo'lgan ayrim qismlarida qilinishi mumkin.	20 % gacha
Konstruktiv unsur ekspluatatsiya uchun to'la yaroqli, lekin ushbu bosqichda ko'proq ma'qul bo'ladigan ayrim kapital ta'mirlar ta'lab qilinadi.	21% dan 40% gacha
Konstruktiv unsurlarning ekspluatatsiyasi faqat sezilarli kapital ta'mir sharoitida mumkin.	41% dan 60% gacha
Tutuvchi konstruktiv unsurlar avariya holatida, tutmaydiganlar omonat holatda. Konstruktiv unsurlarning o'z funksiyalarini cheklangan bajarishi faqat himoya tadbirlari o'tkazib, yoki konstruktiv unsurlarning to'la almashtirish bilan bo'ladi.	61% dan yuqori
Konstruktiv unsurlar buzilish holatiga kelib qolgan. 100 % eskirganda konstruktiv unsurlarning qoldiqlari to'liq yo'qotilgan.	

35. Baholash paytidagi jismoniy eskirish inshoot, element, tizim va umuman binoga yetkazilgan zararni bartaraf etadigan ob'ektiv zarur ta'mirlash chora-tadbirlari qiymati va ularni almashtirish qiymati orasidagi nisbat bilan ifodalanadi.

7-§ Turar joy binolarining qurilgan yillari hisobi

36. Qayd etish kerakki, muayyan turar joyni qurish sanasi binoni qurish nihoyasiga yetgan sana bilan bir xil bo'lishi shart emas. Uy-joylar joylashgan binoni qurish yakunlangan davr bo'yicha quyidagi tasniflashdan foydalaniladi:

- a) 1919- yilgacha;
- b) 1920- yildan – 1945- yilgacha;
- d) 1946- yildan – 1960- yilgacha;
- e) 1961- yildan – 1970- yilgacha;
- f) 1971- yildan – 1980- yilgacha;
- g) 1981- yildan – 1990- yilgacha;
- h) 1991- yildan – 2000- yilgacha;
- i) 2001- yildan – 2010- yilgacha;
- j) 2011- yildan – 2015- yilgacha;
- k) 2016- yildan keyin.

8-§ Uy-joy fondi qiymatini baholash hisobi

37. Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi nizom jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan uy-joy fondi ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini hisoblash tartibini belgilaydi.

5- bob. Ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchi organlarning uy-joy fondi hisobi

38. Ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchi organlarning (keyingi o'rinlarda – Boshqaruvchi organlar) uy-joy fondi bu - faoliyat yuritayotgan barcha Boshqaruvchi organlar boshqaruvida bo'lgan uylarning uy-joy fondi ma'lumotlari hisoblanadi.

39. Boshqaruvchi organlar biriktirilgan uylar hududlari maydoni Boshqaruvchi organlar faoliyatini amalga oshirish uchun biriktirilgan ko'p kvartirali uylar yon atrofidagi hududni umumiy maydoni (bunda Boshqaruvchi organlar biriktirilgan avtuturargohlar, bolalar maydonchasi, dam olish maskanlari, sayilgohlar, yo'laklar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi obyektlar) hisobga olinadi.

40. Umumiy mol-mulkni, yer uchastkasi va Boshqaruvchi organlarning mulkini saqlashga qaratilgan pul mablag'lariga mulkdorlardan har oyda pul shaklida majburiy badallar (hisoblangani), ixtiyoriy badallari va xayriyalari, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlari hisobga olinadi.

41. Boshqaruvchi organlarning umumiy mol-mulkni saqlash bilan bog'liq xarajatlari umumiy boshqaruv, xizmat ko'rsatish, umumiy mol-mulkni ta'mirlashni ta'minlash, yer uchastkasi, hududida joylashgan tashqi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish jihozlariga aloqador bo'lgan xarajatlar hisoblanadi.

42. Turar-joy umumiy maydoni $1m^2$ uchun belgilangan majburiy badal o'rtacha miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$B_{tj} = \frac{J_{bt}}{K_s}$$

bu yerda:

B_{tj} – turar-joy umumiy maydoni $1m^2$ uchun belgilangan majburiy badal o'rtacha miqdori;

J_{bt} – boshqaruvchi organlar tomonidan turar-joy umumiy maydoni $1m^2$ uchun belgilangan majburiy badal o'rtacha miqdori jami summasi;

K_s – turar-joy umumiy maydoni $1m^2$ uchun belgilangan majburiy badal summasini ko'rsatgan boshqaruvchi organlar soni.

43. Noturar-joy umumiy maydoni $1m^2$ uchun belgilangan majburiy badal o'rtacha miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$B_{nj} = \frac{J_{bn}}{K_s}$$

B_{nj} – noturar-joy umumiy maydoni $1m^2$ ga belgilangan majburiy badal o'rtacha miqdori;

J_{bn} – boshqaruvchi organlar tomonidan noturar-joy umumiy maydoni $1m^2$ uchun belgilangan majburiy badal o'rtacha miqdori jami summasi;

K_s – noturar-joy umumiy maydoni $1m^2$ uchun belgilangan majburiy badal summasini ko'rsatgan boshqaruvchi organlar soni.

6- bob. Yakuniy qoidalar

44. Ushbu uslubiy nimoni ishlab chiqishda Qozog'iston, Rossiya va Germaniya davlatlari tajribalaridan foydalanildi.

45. Ushbu uslubiy nizom asosan statistika organlarida foydalanish uchun mo'ljallangan.

46. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik milliy ma'lumotlari bazasi (<https://lex.uz/>), 2021- y. 11- avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi. Qonunchilik milliy ma'lumotlari bazasi (<https://lex.uz/>), 1998- y. 24- dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik normalari va qoidalari "Turar joy binolari". O'zbekiston Respublikasi Qurulish vazirligi (<https://mc.uz>), ShNQ 2.08.01-2005.
4. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik normalari va qoidalari "Turar joy binolarining eskirishini baholash qoidalari". O'zbekiston Respublikasi Qurulish vazirligi (<https://mc.uz>) ShNQ 2.01.16-1997.
5. O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat kadastrlarini yuritish hamda axborot tizimlarida foydalaniladigan tasniflagichlar to'plami. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, №11, 2021- y. 19- mart.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 30- dekabrda "Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risida"gi 1043- son qarori (<https://lex.uz/>).
7. Milliy hisoblar tizimi 2008–YEJK, XVJ, IHTT, BMT, JB Nyu-York 2009- y. (<https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/>).
8. Yevropa statistiklari konferensiyasining 2020- yil raundida aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish bo'yicha tavsiyalari. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EIKBMT) (https://unece.org/stats/2015/ECECES41_RU).
9. "Uy-joy fondi statistikasi bo'yicha uslubiy qoidalar", Belstat 2015- y. (<http://www.cisstat.com/rus/>).
10. "Uy-joy fondi va kommunal xizmatlar statistikasi bo'yicha metodika", Kirgiz stat, 2018- y. (<https://stat.gov.kz/>).

Методика по формированию основных показателей статистики жилищного фонда

Настоящая Методика по формированию основных показателей статистики жилищного фонда (далее - Методика) разработана в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об официальной статистике» и рекомендациями международных экспертов с целью формирования системы статистических показателей по статистике жилищного фонда для обеспечения их сопоставимости на международном уровне, которая определяет основные аспекты и методы получения статистической информации о жилищном фонде при проведении статистических наблюдений органами статистики и ответственными министерствами и ведомствами для предоставления достоверной официальной информации, описывая состояние и состав жилищного фонда республики.

Данная методика разработана в соответствии с требованиями «Типовой модели процессов производства статистических данных» (The Generic Statistical Business Process Model, далее - GSBPM).

Глава I. Общие положения

1. Эта Методика содержит источники информации, используемые для формирования основных показателей жилищного фонда, их классификацию и определения, порядок организации и проведения статистических наблюдений в сфере жилья, официальные источники статистических данных, а также процессы интеграции, классификации и кодирования данных, формирования, обобщения и обработки новых показателей в рамках этапа обработки GSBPM.

2. Статистика жилищного фонда изучает наличие, состав, движение и благоустройство жилищного фонда, а также состояние жилищных условий населения.

3. В настоящей Методике применяются следующие основные понятия и термины:

Жилищный фонд — это фонд, состоящий из жилых помещений, пригодных для проживания человека, включая жилые дома, квартиры, служебные жилые помещения, специализированные дома (общежития, дома маневренного жилищного фонда, дома-интернаты для инвалидов, ветеранов, одиноких престарелых, а также детские дома и дома иного специального назначения). В жилищный фонд не включаются такие помещения как, расположенные в домах, предназначенные для коммерческих, бытовых и непроизводственных нужд, но не предназначенные для проживания;

Строение содержит одно или более жилищ, комнаты или другие помещения, перекрытые крышей и заключенные во внешних или внутренних стенах от фундамента до крыши, которые спроектированы либо для проживания, либо для сельскохозяйственных, коммерческих, промышленных и культурных целей или для предоставления услуг. Строение, в котором расположено жилище, рассматривается как косвенная, но важная единица наблюдения при проведении переписи жилищного фонда, поскольку сведения относительно строения (тип постройки, материал наружных стен и некоторые другие его характеристики) необходимы для правильного описания расположенных в нем жилых помещений.

Жилой дом — это место, предназначенное для постоянного проживания граждан, отвечающее установленным санитарным, пожарным и техническим требованиям, а также для использования в качестве особого жилища в установленном порядке.

Жилым помещением признается помещение, отвечающее установленным санитарным, противопожарным и техническим требованиям, предназначенное для постоянного проживания граждан, а также для использования в установленном порядке в качестве специализированных домов.

Индивидуальное жилье — одно или несколько жилых домов, расположенных на одном земельном участке, с подсобными постройками для постоянного проживания, отдыха и самозанятости, а также один или несколько жилых домов, которым принадлежат постройки во дворе.

Многоквартирный дом — совокупность двух и более квартир, имеющих самостоятельные выходы либо на земельный участок, прилегающий к многоквартирному дому, либо в помещения общего пользования в таком доме. Многоквартирный дом содержит в себе элементы общей собственности, принадлежащей собственникам помещений на праве долевой собственности.

Специализированное жилье – состоит из общежития, пансионатов для престарелых и инвалидов, а также специализированные квартиры для семей с пожилыми людьми и инвалидами.

Жилая комната – это квартира или жилая площадь, находящиеся внутри жилого дома, другого капитального строения (здания, сооружения).

Квартира – это отдельная жилая площадь, состоящая из одной или нескольких жилых и подсобных комнат.

Жилая площадь – это сумма площадей жилой площади и подсобных помещений, за исключением балконов, лоджий, террас и неотапливаемых (холодных) комнат.

Квартиры с нежилыми помещениями – строения, не предназначенные для проживания граждан, включенные в проект при строительстве дома, построенного или реконструированного здания, размещенные на нижних этажах жилого дома, признанного (переведенного) в установленном законодательством порядке в нежилое помещение, за исключением зданий технического назначения, находящихся в многоквартирном доме, переоборудованные в подвальные и полуподвальные помещения.

Глава II. Основные статистические показатели жилищного фонда и источники их формирования

4. Для формирования основных статистических показателей жилищного фонда ведётся:

- учет жилищного фонда по форме собственности;
- учет по типу жилья;
- учет площади жилищного фонда;
- учет по обеспеченности жилищного фонда коммунальной инфраструктурой;
- жилых помещений по конструктивным решениям;
- учет по физическому износу жилых помещений;
- учет по годам постройки жилых домов;
- расчет оценки стоимости жилищного фонда;
- учет жилищного фонда органов управления многоквартирными домами.

5. Основные статистические показатели жилищного фонда формируются Агентством по кадастру при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан (далее Агентство по кадастру) на основе данных Единого государственного реестра недвижимости.

Глава III. Инструментарий статистического мониторинга и административных данных

6. При формировании основных статистических показателей жилищного фонда используются:

Агентства по кадастру при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан «О жилищном фонде»;

Министерства строительства и жилищно-коммунального хозяйства Республики Узбекистан «О перечне органов управления многоквартирными домами»;

форма 1 kom (kvartira) «Отчет о деятельности управляющих органов многоквартирными домами»;

форма 1 kb (kvartira) (1 kb shakliga ilova) «Отчет о деятельности управляющих органов многоквартирными домами».

7. Классификаторы, используемые при формировании данных:

а) свод классификаторов, используемых Агентством по кадастру при государственной регистрации прав на недвижимое имущество и ведении государственных кадастров и информационных систем;

б) классификатор организационно-правовых форм Республики Узбекистан (КОПФ) O'zDSt 2847:2014;

в) ведомственный классификатор «Система обозначения административно-территориальных образований (объектов) Республики Узбекистан» (СОАТО);

г) ведомственный справочник «Система обозначений органов государственного и хозяйственного управления» (СООГУ).

Глава IV. Особенности статистического учета жилищного фонда

§ 1. Учет жилищного фонда по формам собственности

8. Жилищный фонд включает в себя жилье, пригодное для проживания людей, в том числе дома, квартиры, служебные квартиры и частные дома.

9. Помещения в домах, предназначенные для коммерческих, бытовых и непроизводственных нужд и не предназначенные для проживания, в жилищный фонд не включаются.

Согласно Жилищному кодексу Республики Узбекистан в жилищный фонд не включаются дачные дома, летние и садовые домики, гостевые дома, санатории, профилактории, дома отдыха, лагеря, комнаты в гостиницах, здания, предназначенные для проживания, но не достроенные, передвижные сооружения (вагоны, палатки и т.п.), казармы, самовольные постройки, независимо от того, являются ли они жилыми, исправительные учреждения, тюрьмы, здания для тюрем и другие аналогичные здания.

10. В Жилищном кодексе Республики Узбекистан отмечается, что жилищный фонд состоит из частного и государственного жилья.

11. В частный жилищный фонд входят:

жилищный фонд, находящийся в собственности **граждан** (индивидуальные жилые дома, приватизированные, построенные и приобретенные квартиры и дома, квартиры в домах жилищно-строительных и жилищных кооперативов с полностью выплаченным паевым взносом, квартиры и дома, приобретенные в собственность гражданами на иных основаниях, предусмотренных законодательством);

жилищный фонд, находящийся в собственности хозяйственных товариществ и обществ, кооперативов, общественных объединений, общественных фондов и других негосударственных **юридических лиц**, построенный или приобретенный за счет их средств на аукционе или иных основаниях, предусмотренных законодательством.

12. В государственный жилищный фонд входят:

муниципальный жилищный фонд, находящийся в ведении органов государственной власти на местах, созданный за счет налогов и других обязательных платежей в местный бюджет, а также за счет иных поступлений по основаниям, предусмотренным законодательством;

ведомственный жилищный фонд, находящийся в полном хозяйственном ведении или оперативном управлении государственных предприятий, учреждений и организаций;

коммунальный жилищный фонд целевого назначения, находящийся в ведении органов государственной власти на местах, созданный за счет средств местного бюджета, а также переданный на их баланс из частного, муниципального, ведомственного жилищного фонда, используемый на

условиях найма для социально незащищенных, малообеспеченных категорий граждан без права приватизации.

§ 2. Учет типы жилье помещения

13. К жилым помещениям относятся:

- а) жилые дома;
- б) квартиры в многоквартирных домах;
- в) специализированное жилье.

§ 3. Учет площади жилищного фонда

14. Один из важных показателей жилищного фонда – его площадь, которая делится на общую и жилую.

15. Общая площадь жилищного фонда включает в себя жилые и вспомогательные помещения (кухня, парадные коридоры, коридоры, ванная или душевая, туалеты, склады, отапливаемые и приспособленные палатки, антресоли, террасы, веранды), летние комнаты и кладовые, а также суммы площадей встроенных шкафов.

16. Жилая площадь жилищного фонда – это площадь жилых домов и жилых комнат в зданиях, которое измеряется с внутренней стороны наружных стен, за исключением непригодных для жилья подвальных и мансардных помещений и в многоквартирных домах всех помещений общего пользования. В состав помещений общего пользования входят: кухни, коридоры, санузлы, склады, балконы, лоджии, террасы и неотапливаемые (холодные) помещения, а также площадь других подсобных помещений. Также исключаются нежилые помещения, занятые жилищными организациями, магазинами, почтовыми отделениями, детскими учреждениями, бытовыми службами и др.

17. Средняя обеспеченность населения жильем – общая жилая площадь, приходящаяся на одного человека.

Данный показатель рассчитывается путем деления общей площади жилищного фонда на конец года на среднесписочную численность постоянного населения на конец года и определяется по следующей формуле:

$$T_{ij} = \frac{M_{ij}}{A_d},$$

где

T_{ij} – средняя обеспеченность населения жильем;

M_{ij} – общая площадь жилищного фонда на конец года;

A_d – средняя численность постоянного населения на конец года.

§ 4. Обеспеченность жилищного фонда коммунальной инфраструктурой

18. Под обеспеченностью жилищного фонда коммунальной инфраструктурой понимается информация об обеспеченности жилых домов питьевой водой, канализацией, отоплением, газом, горячей водой, баней (душем) и др. Уровень обеспеченности, который является показателем качества жилищного фонда, измеряется количеством жилых помещений, оборудованных всеми видами благоустройства.

19. Жилое помещение считается обеспеченным питьевой водой, если в доме имеется водопроводная система, забирающая воду из центральной системы водоснабжения или артезианской скважины.

20. Жилое помещение считается оборудованным канализацией, если в нем имеется канализационное устройство для отвода хозяйственно-бытовых вод (сточных вод) в уличную канализационную сеть или септик.

21. Жилые помещения считаются отапливаемыми, если квартиры (дома) подключены к централизованному теплоснабжению или к теплоснабжению через индивидуальное оборудование.

22. Жилое помещение считается обеспеченным горячим водоснабжением, если оно оборудовано централизованными специальными водопроводами или квартирными водонагревателями, в том числе малогабаритными котлами, обеспечивающими горячую воду для бытовых нужд населения:

23. Жилые помещения считаются газоснабженными, если они подключены к сети природного газа.

24. Если газоснабжение газовых плит, отопительных приборов и других бытовых приборов в жилых домах и квартирах осуществляется посредством газовых баллонов, то жилое помещение считается снабженным сжиженным газом.

25. Жилое помещение считается электрифицированным, если оно имеет центральную электросеть или независимый источник электроэнергии.

26. Жилое помещение считается обеспеченным баней (душем) независимо от способа поступления горячей воды и системы горячего водоснабжения. Не считаются оборудованными ваннами (душем) строения, в которых ванны (душ) установлены, но канализация отсутствует.

27. Расчет показателей обеспеченности жилищного фонда коммунальной инфраструктурой осуществляется на основании «Методического положения по расчету статистических показателей благоустройства жилищного фонда».

§ 5. Расчет жилых помещений по конструктивным решениям

28. Состав жилищного фонда (жилищные стандарты) определяется набором различных показателей, описывающих проектно-планировочные решения домов, их потребительские качества, срок службы, уровень морального износа и другие местные характеристики.

29. Информация о материалах, использованных при строительстве тех или иных конструктивных элементов жилого дома, может быть применена совместно с информацией о других характеристиках для оценки качества жилья.

30. Жилищный фонд делится на следующие группы в зависимости от типа материалов конструктивных элементов здания:

древесина;

необожженная глина (глинобитные);

обожженная глина (кирпич, блоки, панели и т.д.), камень, бетон (отлитый на месте бетон, блоки, панели и т.д.) или стальной каркас (т.е. крупнопанельный и железобетонный);

сборные элементы конструкции, которые обычно изготавливаются на заводе, транспортируются на строительный участок и затем монтируются;

смешанные материалы (т.е. комбинация стройматериалов);

прочие материалы.

§ 6. Жилищный фонд по проценту износа

31. Физический износ - один из главных показателей надежности и долговечности эксплуатируемых жилых зданий, а, следовательно, и размера затрат на их текущий ремонт. Характер и интенсивность износа зависят от многочисленных факторов (физических, химических, механических,

электрохимических и др.) и в каждом конкретном случае роль любого из них различна, вследствие чего трудно определить ведущий фактор разрушения.

32. Под физическим износом конструкции, элемента, системы инженерного оборудования и здания в целом следует понимать утрату ими первоначальных технико-экономических качеств (прочности, надежности, устойчивости и др.) в результате воздействия природно-климатических факторов и жизнедеятельности человека.

33. Распределение жилых домов рекомендуется, в зависимости от процента физического износа, дифференцировать по следующим группам:

- а) до 20%;
- б) от 21% до 40%;
- в) от 41% до 60%;
- г) свыше 61%.

34. Шкала для определения физического износа элементов конструкций и материалов следующая:

Общая характеристика технического состояния	Физический износ, %
Без повреждений или деформации. Имеются небольшие недоработки, не влияющие на работу элемента конструкции, которые легко отремонтировать. Капитальный ремонт может производиться только на относительно старых деталях.	до 20%
Конструктивный элемент полностью исправен, но требует капитального ремонта, более приемлемого на данном этапе.	от 21% до 40%
Эксплуатация элементов конструкции возможна только при условии проведения значительного капитального ремонта.	от 41% до 60%
Структурные элементы холдинга находятся в аварийном состоянии, не удерживающие элементы - в аварийном состоянии. Ограниченная работоспособность элементов конструкции возможна только за счет защитных мероприятий или полной замены	свыше 61%

элементов конструкции.	
Конструктивные элементы пришли в негодность. При 100 %-ном износе остатки элементов конструкции полностью теряются.	

35. Физический износ на момент его оценки выражается соотношением стоимости объективно необходимых ремонтных мероприятий, устраняющих повреждения конструкции, элемента, системы или здания в целом, и их восстановительной стоимости.

§ 7. Жилищный фонд по годам возведения

36. Дата постройки конкретного жилища необязательно может быть такой же, что и дата завершения строительства строения. Классификация жилых домов по годам возведения основана на дате ввода здания жилищного фонда в эксплуатацию:

- а) до 1919 года;
- б) с 1920 по 1945 год;
- в) с 1946 по 1960 год;
- г) с 1961 по 1970 год;
- д) с 1971 по 1980 год;
- е) с 1981 по 1990 год;
- ж) с 1991 по 2000 год;
- з) с 2001 по 2010 год;
- и) с 2011 по 2015 год;
- к) после 2016 года.

§ 8. Расчет оценки жилищного фонда

37. Положение о порядке расчета кадастровой стоимости недвижимого имущества, находящегося в собственности физических лиц, определяет порядок расчета кадастровой стоимости недвижимого имущества для целей налогообложения жилищного фонда, находящегося в собственности физических лиц и для целей исчисления налога на имущество.

Глава V. Учет жилищного фонда управляющих органов многоквартирными домами

38. Жилищный фонд управляющих органов многоквартирными домами (далее – управления) – это данные жилищного фонда домов, находящихся в ведении всех действующих органов управления.

39. Площадь территорий домов, прикрепленных к органам управления, учитывается как общая площадь прилегающей территории многоквартирных домов, прикрепленных к органам управления для осуществления деятельности органов управления многоквартирными домами (при этом учитывается общая площадь стоянок, детских площадок, мест отдыха, парковок, тротуаров и других объектов обслуживания, пристроенных к органам управления).

40. В денежных средствах, направляемых на содержание общего имущества, земельного участка и имущества органов управления, учитываются ежемесячные обязательные взносы (начисления) от собственников в денежной форме, добровольные взносы и пожертвования, доходы от предпринимательской деятельности и иные доходы, не запрещенные законодательством.

41. Расходы органов управления, связанные с обслуживанием общего имущества – это расходы, связанные с общим управлением, обслуживанием, обеспечением ремонта общего имущества, земельного участка, оборудования для наружного благоустройства и озеленения, расположенного на его территории.

42. Средний размер обязательного взноса, установленный на один квадратный метр общей жилой площади членов, рассчитывается по формуле:

$$Btj = \frac{Jbt}{Ks},$$

где

Btj – средний размер обязательного взноса, установленный на один квадратный метр общей жилой площади членов;

Jbt – общая сумма среднего размера обязательного взноса, установленного управлением на один квадратный метр общей площади жилого помещения;

Ks – количество управлений, указывающих сумму обязательного взноса, установленного на один квадратный метр общей площади жилого помещения.

43. Средний размер обязательного взноса, установленного на один квадратный метр общей площади нежилого помещения собственников жилья, рассчитывается по формуле:

$$Bnj = \frac{Jbn}{Ks},$$

где

Bnj – средняя величина обязательного взноса собственников нежилого помещения, установленная на один квадратный метр общей площади нежилого помещения;

Jbn – общая сумма среднего размера обязательного взноса, установленного управлением на один квадратный метр общей площади нежилого помещения;

Ks – количество управлений, указывающих сумму обязательного взноса, установленного на один квадратный метр общей площади нежилого помещения.

Глава VI. Заключительные положения

44. Данная Методика разработана с использованием опыта Казахстана, России и Германии.

45. Данная Методика в основном предназначена для использования в органах статистики.

46. Этапы разработки, согласования, утверждения и внедрения в практику настоящего методического документа осуществлены в соответствии с «Типовым методическим руководством по разработке и утверждению классификаций, методологий и форм наблюдения в области статистики», разработанным на основе требований «типовой модели статистической информации» (GSIM – Generic Statistical Information Model).

Перечень использованной справочной информации

1. Закон Республики Узбекистан «Об официальной статистике» // Национальная база данных законодательства №ЗРУ-707 (<https://lex.uz>), 11.08.2021 г.
2. Закон Республики Узбекистан « Об управлении многоквартирными домами // Национальная база данных законодательства №ЗРУ-581 (<https://lex.uz>), 07.11.2019 г.
3. Жилищный кодекс Республики Узбекистан // Национальная база данных законодательства №ЗРУ-707 (<https://lex.uz>), 24.12.1998 г.
4. Градостроительные нормы и правила «Правила оценки физического износа жилых зданий» (ШНК 2.08.01.16-1997). Госархитекстрой РУз (<https://mc.uz>). Ташкент, 1997.
5. Градостроительные нормы и правила «Жилые здания» (ШНК 2.08.01-2005). Госархитекстрой РУз (<https://mc.uz>). Ташкент, 2005.
6. Свод классификаторов, используемых при государственной регистрации и ведении государственных кадастров и информационных систем, а также прав на недвижимое имущество в Республике Узбекистан // Агентство по кадастру при Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан. №11. 19.03.2021г.
7. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №1043 от 30 декабря 2017 года «Об утверждении Положения о порядке расчета кадастровой стоимости объектов недвижимого имущества, жилого фонда, принадлежащих физическим лицам, для целей налогообложения» (<https://lex.uz>).
8. Система национальных счетов 2008/КЕС, МВФ, ОЭСР, ООН, ВБ/Нью-Йорк, 2009 (<https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount>).
9. Рекомендации Конференции европейских статистиков по проведению переписей населения и жилищного фонда 2020 года. ООН, Нью-Йорк и Женева 2015 г. (https://unece.org/stats/2015/ececes41_ru).
10. Методические положения по статистике жилищного фонда, Белстат- 2015 (<http://www.cisstat.com>).
11. Методика по статистике жилищного фонда и коммунальных услуг. Кыргызстат, 2018 (<https://stat.gov.kz>).